

PRESS-RELIZ

“El-yurt umidi” jamg‘armasining 2025-yil 1-ochiq stipendiya tanlovi test sinovlari o‘tkazildi

Bugun, 3-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasining 2025-yil 1-ochiq stipendiya tanlovi doirasida test sinovlari o‘tkazildi.

Barcha jarayonlar ochiqlik, shaffoflik, tenglik va inklyuzivlik tamoyillariga asosan tashkil etilgan.

Tanlov komissiyasi tomonidan dastlabki saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan **975 nafar** nomzodning ikkinchi bosqichda ishtirok etishiga ruxsat berildi.

Test sinovlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o‘tkazildi. Testlar nomzodlarning intellektual salohiyatini, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini, psixologik barqarorligini baholashga qaratilgan.

Nomzodlarga qulaylik yaratish maqsadida ularga test sinovlarida **oflayn** (agar O‘zbekiston hududida bo‘lsa) va **onlayn** (agar chet elda bo‘lsa) shakllarida ishtirok etish imkoniyati taqdim etildi. Bundan tashqari, test topshirish nuqtalari nafaqat Toshkent shahrida, balki Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda ham tashkil etildi. Bu nomzodlarga bevosita o‘z hududlarida sinovdan o‘tish orqali vaqt va mablag‘larini tejash imkonini berdi.

Shuningdek, **376 nafar** nomzod 1-ochiq stipendiya tanlovi doirasida test sinovlaridan ozod etildi. Tanlov nizomiga muvofiq, tanlovning birinchi bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan hamda belgilangan muddatda o‘zining akademik salohiyatini tasdiqlovchi amaldagi **xalqaro sertifikatlarni** (SAT, GRE, GMAT, A-Level) taqdim etgan nomzodlar test sinovlaridan ozod etiladi. Ular **keyingi bosqich — suhbatda** ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdilar.

Eslatib o‘tamiz, “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan 2025–2026 o‘quv yili uchun nufuzli xorijiy universitetlarda ta’lim olish uchun: bakalavriat ta’lim dasturlari uchun 130 ta, magistratura uchun 220 ta, doktorantura uchun 100 ta o‘ringa stipendiyalar ajratilishi rejalashtirgan. Nomzodlarning hujjatlari 2025-yil 3-iyundan 16-iyunga qadar barcha uchun yagona tartib va teng imkoniyat asosida, onlayn platforma orqali 24/7 rejimida qabul qilindi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi

Jamoatchilik bilan aloqalar va axborot xizmati

ПРЕСС-РЕЛИЗ

Прошли тестовые испытания в рамках первого открытого конкурса на соискание стипендий фонда «Эл-юрт умиди»

Сегодня, 3 июля прошли тестовые испытания в рамках первого открытого конкурса на соискание стипендий Фонда «Эл-юрт умиди» по подготовке перспективных кадров при Президенте Республики Узбекистан.

Все процессы были организованы на основе принципов открытости, прозрачности, равенства и инклюзивности.

Конкурсная комиссия к участию во втором этапе допустила **975 кандидатов**, которые успешно прошли предварительный отбор.

Тестовые испытания проведены Агентством по оценке знаний и квалификаций при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан. Тесты ориентированы на оценку интеллектуального потенциала, аналитического и критического мышления, психологической устойчивости.

В целях повышения доступности кандидаты получили возможность сдачи тестов в **офлайн** (если находятся в Узбекистане) и **онлайн**-форматах (если находятся за рубежом). Кроме того, пункты для сдачи тестов были организованы не только в Ташкенте, но и в Республике Каракалпакстан и областях. Это позволило кандидатам сэкономить время и средства, пройдя испытания непосредственно в своих регионах.

Вместе с тем, **376 кандидатов** были освобождены от участия в тестах — они своевременно предоставили актуальные **международные сертификаты** (SAT, GRE, GMAT, A-Level), подтверждающие их академические способности. Эти участники получили право участия в **следующем этапе — собеседовании**.

Напомним, фондом “Эл-юрт умиди” в 2025–2026 учебном году предусмотрено выделить стипендии на обучение в престижных зарубежных университетах: 130 мест для программ бакалавриата, 220 мест для магистратуры и 100 мест для докторантуры. Документы кандидатов принимались с 3 по 16 июня 2025 года на основе единого порядка и равных возможностей для всех через онлайн-платформу в режиме 24/7.

Служба по связям с общественностью и информации
Фонда «Эл-юрт умиди»